KORXONALARDA RISK MENEJEMENTINI JORIY ETILISH MEXANIZMLARI

[1]Kambarov Jamoliddin Xikmatullayevich, [2]Tashpulatova Muniraxon Mahmudovna
[1]DSc, Qo'qon davlat universititedi, prorektori, [2]Farg'ona texnika universititeti, menejement kafedrasi II-bosqich doktaranti,
https://doi.org/10.5281/zenodo.20273087

Annotatsiya. *Jahon iqtisodiyotidagi inqiroz hodisalarining kuchayishi, O'zbekiston respeblikasida iqtisodiyot va boshqaruv tizimini qayta qurish, yirik tashkilotlar o'rtasidagi raqobatning kuchayishi xavflarni boshqarishning moslashuvchan dinamik modelini ishlab chiqishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini takomillashtirishni talab qiladi. Bu vaziyatdan kelib chiqib shoshilinch ehtiyoj mavjud tizimli yondashuvni ta'minlashga asoslangan tashkilotlarda risklarni boshqarishning yangi dinamik texnologiyalarini ishlab chiqish tashqi muhit va bozorlarda keskin o'zgarishlar vujudga kelganda shoshilinch ravishda tizimli yondashuvni ta'minlashga asoslangan risklarni boshqarishning yangi dinamik texnologiyalarini ishlab chiqish hozirgi davr boshqaruv bo'g'inlarining asosini tashkil etadi.*

Abstract. *The intensification of processes in the world economy, the strengthening of economic and management construction in the Republic of Uzbekistan, the strengthening of its own personal life requires the development of a dynamic model of the dynamics of the processes of production measures. Based on this situation, it will help to ensure the development of new dynamic technologies for taking security measures.*

Аннотация. *Интенсификация процессов в мировой экономике, усиление экономического и управленческого строительства в Республике Узбекистан, укрепление ее собственной личной жизни требуют разработки динамической модели динамики процессов производственных мероприятий. На основе этого будет обеспечена разработка новых динамических технологий реализации мер безопасности.*

KIRISH

Risk haqidagi zamonaviy tushuncha Fransiyada XVII asrda, tarixan, ehtimollik nazariyasi rivojlangan vaqtda keng tarqalganligi bejiz emas. Fransiyalik olimlar G.Kardan, B.Paskal, P.Fermat va Kristian Gyuygenslarning XVI - XVII asrlardagi o'z ilmiy tadqiqot ishlarida foydalangan va keyinchalik barcha sohalarga keng qo'llana boshlagan[1]. Cambridge Dictionary electron lug'atida: Risk - bu biror narsa qilish yoki xafa bo'lish yoki yo'qotish yoki mag'lub bo'lish ehtimoli mavjud bo'lgan vaziyatga kirishni anglatadi[2]. S.I.Ojegovning rus tili lug'atida esa quyidagicha tarif ketrilgan: Risk - bu bo'lishi kutilayotgan xavf, omadsizlik yoki holatni, vaziyatni yaxshi tugashiga umid qilish hamda xavfxatarni bila turib harakat qilishdir[3]. Risk menejmenti ma'lum sinergik va multiplikativ ta'sirga ega tizimli, fanlararo kategoriya sifatida insoniyat jamiyatining ilk evolyutsiyasidan boshlab mavjud bo'lib kelgan faqat boshqacha ko'rinishlarda namayon bo'lgan. Masalan: tabiiy fanlarda

[1] Peretti-Watel P, 2001. [La société du risque]. [Fransuz tilidagi kitob]. La Découverte nashri, Parij, Fransiya.
[2] https://dictionary.cambridge.org/ru /risk
[3] С.И Ожегов "Словарь русскога языка" Москва -1973 ст-626

tibbiyot, fizika, biologiya, kimyo yoki gumanitar fanlarda ham siyosatshunoslik, tarix, ilohiyot kabi ko‘plab fanlarda paydo bo‘lgan. Shuningdek, iqtisodiyot ham bundan mustasno emas, “xavf ’’ kontseptsiyaning mohiyati va paydo bo'lishi, rivojlanishi qadimgi dunyo bilan chambarchas bog'liq.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda tashkiliy tavakkalchiliklarni o‘rganish bilan mashhur olimlar, R.Bazzell, I.A. Blank, R. Gallager, D. Koks, D. Kuper, V.Lourens, P. Mur, F. Nayt, V. Evgenzixt, D. Rikardo, V. Rou, A. Smit, V.Snayder va boshqa ko’plab olimlar izlanishlar olib borgan. MDH davlatlari olimlaridan A.M.Bukreyev, A.P.Gradova, V.A.Bogomolov, V.I.Koshkin, I. Lukasevich, V.I.Orexov, V.R.Vesnin, G.B.Yun, G.K.Tal, Ye.A.Babushkina, Ye.P.Jarkovskaya, K.V.Baldin, N.V.Baksha, N.N.Kojevnikova, N.Yu.Kruglova, Ya.A.Fomin, Ye.M. Korolkova, E.M. Korotkova, I.T. Balabanov, K.V. Baldin, M.K. Chernyakov, A.K. Solodov, V.S. Stupakov, L.V. Donsova, N.A.Nikiforova, O.P. Zayseva, G. Davidova, I.A. Blank, A. Belikova va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘rganildi. Risni boshqarishning samarali omillari, iqtisodiy havfsizlikni ta’minlash va nochorlik holatlarini profilaktika qilish, davlat va korxona darajasidagi inqirozlarni bartaraf etish yo‘nalishlari, risklarni moliyaviy-iqtisodiy tahlil qilish, risk boshqaruvida kadrlar omilining ishtiroki hamda riskli vaziyatlarda iqtisodiy salohiyatni oshirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari mamlakatimiz olimlaridan S.S.G‘ulomov, N.Q.Yo‘ldoshev, N.M.Mahmudov, A.U.Burxanov, B.O.Tursunov, Sh.N.Zaynutdinov, I.T.Abdukarimov, Yo.Abdullayev, M.K.Azimov, A.Sh.Bekmurodov, A.V.Vahobov, N.X.Jumayev, M.Q.Pardayev, D.N.Raximova, E.Hamzayev, A.Ortiqov, E.A.Hoshimov va boshqa qator olimlar hamda tadqiqotchilarning ishlarida o‘z aksini topgan[4]

Jumladan ular risk menejementi korxonalarda ishni to’g’ri tashkil etish va xodimlar malakasini muntazam oshirish va rivojlantirish kabi holatlarda tez va tavakkal qarorlar qabul qilishning mazmuni va ahamiyati haqida turlicha va juda qiziqarli fikrlar bildirishgan. V.N. Viyatkin fikriga ko’ra tavakkalchilik, eng umumiy ma'noda jasorat va jasorat o'lchovidir. Shunga ko'ra, xavf adekvat, noto'g'ri past yoki nomaqbul darajada yuqori bo'lishi mumkin umuman olganda, hayotimizdagi va xususan biznesdagi ko'pgina xavflar statik yoki ehtimollik emas, ular vaziyatlar kabi noyob, ammo tuzilmalar va nusxalar darajasida ham o'xshashdir, “xavfli vaziyat” tushunchasi, ya’ni muayyan faoliyat turi uchun o‘ziga xos sharoit yaratuvchi holatlar va shart-sharoitlar majmui bilan bog‘lanadi.

Xavfli vaziyat uchta asosiy shart bilan belgilanadi:

- noaniqlikning mavjudligi;
- muqobil tanlash zarurati (shu jumladan rad etish);
- tanlangan muqobillarning ehtimolini baholash qobiliyati.

V.M.Granaturov esa risk menejmenti - bu noxush oqibatning o'zi yoki uning yuzaga kelish ehtimoli emas, balki asosiy xususiyati tizimli noaniqlik bo'lgan faoliyatning xususiyatidir deb hisoblagan. Olimlar yillar mobaynida olib brogan tadqiqotlariga tayangan holda o’z fikrlarini bilim va natijalardan kelib chiqib tahlil qilganlar V.V. Kovalyov risk - bu moliyaviy yo'qotish darajasi a) belgilangan maqsadga erisha olmaslik ehtimoli; b) bashorat qilingan natijaning noaniqligi; v) bashorat qilingan natijani baholashning subyektivligi deb baholagan. Amaliy hayotda xavf ko'pincha

[4] Qambarov.J.X. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarida riskni boshqarish metodologiyasini takomillashtirish. Dissertatsiya ishi. Toshkent 2023. 12-17 bet.

ishlab chiqarish va iqtisodiy tizimlarda va, qoida tariqasida, ommaviy hodisalar paytida paydo bo'ladi, noaniqlik esa statistik ma'lumotlarning etishmasligi tufayli sub'ektiv ravishda xavfli hodisalarning oqibatlari ehtimoli aniqlanganda yuzaga keladi. O'zining amaliy mohiyatiga ko'ra xavfni uch turga bo'lish mumkin:

- qaror qabul qilish bosqichida
- xavf mavjudligini isbotlash bosqichida
- amalga oshirish bosqichida[5].

A.Baydn o'z ishida korxonalarning samaradorligi va raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilib, ular orasida makroiqtisodiy va institutsional muhit omillarini, resurs omillarini, ishlab chiqarishni boshqarish omillarini aniqladi. Ishlab chiqarish-iqtisodiy tizimlarni qurishni o'z ichiga olgan boshqaruvning o'ziga xos usullari bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarishni boshqarish omiliga to'xtalib, ular mamlakatimizda yetarlicha o'rganilmagan degan xulosaga keldi[6].

TADQIQOT METODIKASI

Mazkur tadqiqotda korxonalar boshqaruvida risk menejmentining ahamiyati qay darajada muhimligini, uning ko’magida xodim o’z salohiyatini yanada rivojlantirishi va shu orqali o’zi faoliyat yuritayotgan kompaniyaga qanday darajada foyda keltirishi munkinligi yoritib beriladi. Muallif xorij adabiyotlaridan, maqola va bundan avval aynan shu mavzuda olib borilgan ilmiy ishlardan foydalangan holda statistik tahlillar, solishtirma o’rganishlar, mantiqiy fikrlashni ilgari surgan holatda ilmiy izlanishlar olib bordi. Korxonalarining risklarni boshqarishga qiziqishi ortib borayotganining birinchi va asosiy sababi, uni xorijiy kompaniyalar tomonidan amalga oshirayotgan ijobiy natijalari yuzaga chiqib turganini yaqqol namoyon bo’lishida, risklarni boshqarish bo'yicha puxta ishlab chiqilgan chora-tadbirlarning o'z vaqtida amalga oshirilishi strategik maqsadlarga erishishga sezilarli hissa qo'shadi va ushbu kompaniyalarning faoliyatini yaxshilaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Risk inson faoliyatining har bir sohasiga xos hodisadir. Xavf va ishonchsizlik tushunchalari bo'yicha keng akademik munozaralar bo'lib keladi. 1985 yilda Perri va Xeys ikki tushunchani o'lchash orqali aniqlashdiki, bunda "xavf o'lchanadigan noaniqlik, noaniqlik esa o'lchab bo'lmaydigan narsa ya’ni xavf”[7] degan fikrga kelishgan. 1993 yilda Flanagan va Norman tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa “Noaniqlik - bu tarixiy ma'lumotlar mavjud bo'lmagan yoki oldingi holat tekshirilayotgan vaziyat bilan bog'liq tarix” degan g’oya ilgari surilgan. Shunga ko'ra, har bir fan doirasida u akademik bo’sin yoki amaliy xavf ya’ni risk tushunchasi tadqiqotni mohiyati, predmeti, hamda metodologik bazasining miqdoriy va sifat tarkibi bilan belgilanadigan o'ziga xos xususiyati hisoblanadi[i]. Risk menejmenti korxonani boshqarish jarayonining tarkibiy qismidir, korxona boshqaruvi deganda "ikki tomonlama" murakkab jarayon tushuniladi: bir tomondan, korxonaning o’zini o’zi rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishi bo’lsa ikkinchi tomondan uning tizimlari (bo'linmalari) o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni tanlangan strategiyani amalga oshirish mumkin bo'lgan tarzda tashkil etishi hisiblanadi.

Odatda risklarni tashqi manbalari sifatida ikkita asosiy elementni ko'rib chiqish taklif qilinadi, *makro* muhit va korxonaning *tarmoq* muhiti. Makro muhit global miqyosda xavflarni keltirib

[5] Hongmu.L. Risk management fundamentals theory and practice in Asia. Singapore 2021. 40 page
[6] Медведева А.М. интегративный риск - менеджмент как фактор повышения эффективности деятельности промышленных предприятий. Учебное пособие москва - 2011. 186-189с.
[7] Hopkin. P. Thompson.C. Fundamentals of risk management book. Great Britian 2022. 43-47 pages.

chiqaradi texnogen ofatlar, tabiiy ofatlar, shuningdek, dunyodagi, mamlakatdagi, mintaqadagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va hokazo vaziyatga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan hodisalar. Boshqacha qilib aytganda PAST analizi o'tkazilsa ma'lum korxonaning makro muhitidagi vaziyat yanada ochiqlanishi va shu yo'sinda riskli qarorlar qabul qilinishi osonroq kechishi munkin. Tarmoq muhiti korxonaning tarmoqqa mansubligi bilan belgilanadigan va uning boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar xomashyo etkazib beruvchilar, raqobatchilar, mahsulot iste'molchilari, banklar, sug'urtalovchilar va boshqa shu kabi hamkorlari bilan o'zaro munosabatlari jarayonida yuzaga keladigan risklarni hosil qiladi.[8]

Ijtimoiy va iqtisodiy kuchlarni bir elementga ya'ni tabiiy texnogen va jismoniy muhitga birlashtirilsa, fundamental makro muhitda xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan sohalarini aniqlash uchun yordam beradi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, boshqa kontragentlar - bu tarmoq muhitining bir qismidir, lekin korxona faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan jismoniy shaxslar (yuridik va jismoniy shaxslar) mahalliy hokimiyat organlari, mahalliy aholi, qo'shni tashkilotlar, uy-joy komunal xo'jaligi tuzilmalari vakillari va boshqalar hisoblanadi.[9] Korxonaning har ikki muhiti uning rivojida muhim ahamiyat kasb etadi, qaysi bir muhit bo'lmasin risk mexanizmlari to'g'ri tanlanishi va tizimga qo'yib amaliyotda joriy etilishi asosiy masala.

Korxonalarda nazorat bo'yicha Bazel kompaniyasi risk menejmentida choralarini joriy etishda quyidagi tamoyillar asosida yondashishni tavsiya qiladi:

- Risk chorasi- kutilgan xavf va kutilmagan xavf tushunchalarini talqin qilishning qay darajada aniq va ravshanligini ta'minlashi kerak.
- Barqarorlik - ya'ni model parametrlaridagi kichik o'zgarishlarni hisoblash natijalarida sezilarli o'zgarishlarga olib kelmasligi kerak.
- Hisoblashning oddiyligi - xavfning yanada murakkab chorasini tanlash bunday hisob-kitobning afzalliklari bilan asoslanishi kerak (masalan, xavf omillari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hisobga olgan holda kapitalni tejash).
- Yuqori boshqaruvda aniqlikni mavjudligi- xavf o'lchovi yuqori boshqaruv tomonidan doimiy ravishda qo'llanilishi kerak.
- Kapitalni diversifikatsiya ta'sirini hisobga olgan holda biznes yo'nalishlari ya'ni bo'linmalari bo'yicha doimiy ravishda taqsimlab borish.

Risk menejementi tashkilotning asosiy jarayonlarini boshqarishni yaxshilaydi, asosiy qarorlarni tahlil qilish, kuzatish va ko'rib chiqishni ta'minlash orqali korxonadagi xavflarni nazoratda ushlab turadi.. Risk menejement mexanizmlari va usullari xavf-xatarlarni boshqarishda yordam beradi, ushbu asosiy bog'liqliklarga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan xavflarni va imkoniyat risklarini nazorat qiladi. Tashkilotlar risklarni boshqarish jarayoni tez-tez takrorlanishini ta'minlashi kerak duch keladigan xavflar holatini statik suratga olishi, qiyinchiliklarini yengish uchun ham mas'uliyatni muntazam muvozanatda ushlaydigon bo'g'in bu tashkilot hisoblanadi. Bu risklarni boshqarish dinamik faoliyat bo'lib qolishini ta'minlaydi[10].

[8] А.А.Лобанова и А.В.Чугунова. М.Энциклопедия финансового риск-менеджмента/ Под ред..: «Альпина Бизнес Букс», 2009. [93, стр. 328]

[9] Шевченко. Э.с. Методы оценки и управления совокупным финансовым риском коммерческого банка. Учебное пособие москва – 2013

1- Grafik. Korxonalarda risk mexanizmlarini joriy etilishi[11].



[10] Range of practices and issues in economic capital frameworks, Bank for International Settlements,2017

[11] Muallif ishlanmasi

Korxonalarda risk mexanizmlari har bir tashkilotni o'z srtategiyalari va maqsadlariga muvofiq ravishda yuqorida ko'rsatilgan ketma-ketlik asosida amaliyotga joriy etiladi. [12] Risk menejementi boshqaruvchi va qaror qabul qilivchilardan juda yuqori darajada baholay bilish qobiliyatini talab qiladi, texnologiya, IT, sun'iy intellect, raqamli iqtisodiyot, internet va shu kabi o'nlab manbaalar rivoji yuqori darajada bo'lgani bilan, riskli vaziyatlar va har bir korxonani risk mexanizmlari xodimlar salohiyati va saviyasi bilan bog'liq. Hozirgi vaqtda ko'plab korxonalarda xodimlar sonini qisqartirish avj olgan, buning bir sababi kompaniya ishlab chiqarish hajmining pasaygani bo'lsa yana biri korxonada xodimlar soni emas ularni salohiyati muhim ekanligida.[13]

1-jadval. Farg'onaazot AJ korxonasida xodimlar soni yillar kesmida.

Farg'ona Azot AJ da jami xodimlar soni	**2020**	**2021**	**2022**	**2023**	**2024**
Oliy ma'lumotli xodimlar soni	**1121**	**1053**	**1008**	**981**	**922**
O'rta ma'lumotli xodimlar soni	**3383**	**3285**	**3145**	**2853**	**2675**
O'rta maxsus xodimlar soni	**2707**	**2457**	**2343**	**2310**	**2188**
Jami:	**7211**	**6795**	**6496**	**6144**	**5785**

Yuqoridagi jadvalda Farg'ona viloyatida faoliyat yurituvchi mineral o'g'itlar ishlab chiqaruvchi Azot AJ da faoliyat olib borayotgan xodimlar soni keltirilgan. 5 yillik ma'lumotlarga asoslangan jadvalda ko'rinib turibdiki, xodimlar soni yildan yilga kamaymoqda, ayniqsa o'rta ma'lumotli xodimlar soni 5 yil davomida 3383 nafardan 2675 nafarga kamaygan. Bu ko'rsatkichlar korxonalarda xodimlar sonini kamaytirish yoki ko'paytirish ham aslida risk ekanini ko'rsatadi. Korxonada ishchi, xodim, xizmatchi yoki boshqaruvchilarni soni muhim emas ularni tajriba va malakasi yuqoriligi ahamiyatliroq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Globallashuv va innovatsion boshqaruv yuqori tendensiyalarda avj olayotgan bir davrda zamonaviy boshqaruvda tavakkalchilikka asoslanib tanlangan qarorlar va strategiyalar juda muhim

[12] A.I. Glendon. And Sh.G.Clarke Human Safety and Risk Management third edition. United states of America 2016
[13] Boymirzayev. D.N. Risklarni boshqarish. O'quv qo'llanma. Namangan 2024

o'ringa ega. Risk menejmenti korxona muvaffaqiyati uchun muhim ekanligi tajribalar va yillar mobaynida aniqlandi va yuqori risklar bilan kompaniya muammolari, muvaffaqiyatsizliklar va xatto katta miqyosdagi falokatlarning oldini olish munkinligi ko'plab xorijiy korxonalar tomonidan ham sinovdan o'tkazildi.

- Risk boshqaruvida etibor vaqtga emas natijaga qaratiladi va yutuqlarga erishishda kuchli va salohiyatli jamoaga texnologiyalarga tayangan holda ish olib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Boshqaruvda risklarni to'g'ri joriy etish va o'z o'rnida qo'llashda kompaniyani salohiyatli xodimlari, ahil jamoasi, hamfikr va tajribali ish yurituvchilari juda muhim o'rin egallaydi. [14]

-Har bir korxona bu bir jamiyatdir, ushbu jamiyatda ichki va tashi muhit o'z ahamiyatiga ta'siriga ega. Har ikki muhitda qanday burilish sodir bo'lishini yuksalish yoki pastlash ro'y berishini oldindan bilib bo'lmaydi, ammo avvaldan puxta ishlangan strategiya va risk mexanizmlari bu borada tashkilotlarga ijobiy natijalar olib keladi.

- Risk menejmentini asosiy maqsadi korxona risklarini boshqarishni maksimal samaradorligini ta'minlashdan iborat, shuning uchun korxona ishga joylash, lavozimni oshirish va ishdan bo'shatish jarajonida xodimning shaxsiy sifatlariga, korxona uchun keltirishi munkin bo'lgan samaradorligiga alohida e'tibor berishi lozim.

Xulosa qilib aytganda korxona faoliyatini boshlash, ma'lum biznes rejani amalga oshirish riskni boshlanishidir, bu riskni samarali boshqarishda korxonalarga risk menejmenti yordam beradi. Har bir tashkilot o'z strategiyasiga va missiyasiga mos rejali boshqaruvni yo'lga qo'ya olsa u korxonada risk mexanizmlari ham tartib bo'yicha ketma-ketlikda amalga oshish imkoni oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Peretti-watel p, 2001. [la société du risque]. [fransuz tilidagi kitob]. la découverte nashri, Parij, Fransiya.
2. С.И Ожегов "словарь русскога языка" москва -1973 ст-626
3. Qambarov.j.x. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarida riskni boshqarish metodologiyasini takomillashtirish. dissertatsiya ishi. Toshkent 2023. 12-17 bet.
4. Hongmu.l. risk management fundamentals theory and practice in asia. singapore 2021. 40 page
5. Медведева А.М. Интегративный риск - менеджмент как фактор повышения эффективности деятельности про-мышленных предприятий. учебное пособие Москва - 2011. 186-189С.
6. Hopkin. p. thompson.c. fundamentals of risk management book. great britian 2022. 43-47 pages.
7. А.А.Лобанова и а.в.чугунова. м.энциклопедия финансового риск-менеджмента/ под ред..: «альпина бизнес букс», 2009. [93, стр. 328]
8. Шевченко. Э.С. Методы оценки и управления совокупным финансовым риском коммерческого банка. учебное пособие Москва – 2013
9. Range of practices and issues in economic capital frameworks, bank for international settlements,2017
10. A.I. glendon. and sh.g.clarke human safety and risk management third edition. united states of america 2016

[14] M. Muchnck,R. Parry,J. Machnic . "Xavf va Xavfni aniqlash va ishlab chiqish virtual loyiha jamoasini boshqarish" Capella universititedi 2016

11. Boymirzayev. d.n. risklarni boshqarish. o'quv qo'llanma. namangan 2024
12. M. Muchnck,r. parry,j. machnic . "xavf va xavfni aniqlash va ishlab chiqish virtual loyiha jamoasini boshqarish" capella universititedi 2016

MONOGRAFIYA VA BOSHQA MANBAALAR

1. ЖХ КАМБАРОВ .АНАЛИЗ ФАКТОРОВ ВЛИЯЮЩИХ НА ПЛАТЕЖНЫЙ БАЛАНС СТРАНЫ СОВРЕМЕННАЯ НАУКА. XXI ВЕК: НАУЧНЫЙ, КУЛЬТУРНЫЙ, ИТ КОНТЕКСТ, 78-83
2. ЖХ КАМБАРОВ. ИННОВАЦИОННЫЕ КОМПОНЕНТЫ КОНЦЕПЦИИ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ИЗВЕСТИЯ ОШСКОГО ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА, 270-273
3. Ж КАМБАРОВ. РИСКНИ БАРАТАРАФ ЭТИШДА B2B БИЗНЕС МОДЕЛИНИ ҚЎЛЛАШ МЕХАНИЗМЛАРИ MOLIYA VA BANK ISHI 8 (4), 21-26
4. KJ XIKMATILLAEVICH.YANGI SANOAT INQILOBINI RISK BOSHQARUVIGA TA'SIRI MASALALARI QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI 5, 26-29
5. KJ XIKMATULLAYEVICH, TM MAHMUDOVNA. ISSUES OF EFFECTIVE USE OF HUMAN RESOURCES IN RISK MANAGEMENT AND IT'S GENERAL TECHNIQUES. JOURNAL OF ADVANCES IN ACCOUNTING, ECONOMICS, AND MANAGEMENT 2 (2)
6. Ж.Х КАМБАРОВ. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТАКТИКИ И СТРАТЕГИИ АНТИКРИЗИСНОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ БИРЖА-ЭКСПЕРТ. Т 9, 29
7. https://dictionary.cambridge.org/ru /risk 3